



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Raqamli iqtisodiyot
Digital economy
Цифровая экономика



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Xamrayeva Sayyora Nasimovna

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хамраева Сайёра Насимовна

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF E- COMMERCE IN UZBEKISTAN

Khamraeva Sayyora Nasimovna

Received: March 4, 2026 Revised: March 8, 2026 Accepted: March 14, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda elektron savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari raqamli iqtisodiyot sharoitida kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda elektron tijoratning o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan internet infratuzilmasining kengayishi, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi hamda iste'molchilarning onlayn xizmatlarga bo'lgan talabining ortishi o'rganilgan.

Shuningdek, sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalarning elektron savdo samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil etilgan. Maqolada sohada mavjud muammolar, xususan logistika tizimidagi kamchiliklar, kiberxavfsizlik bilan bog'liq xavflar va aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlik darajasining pastligi aniqlangan.

Xalqaro tajriba va milliy sharoitlar asosida O'zbekistonda elektron savdo ekotizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish hamda kichik va o'rta biznes subyektlarining onlayn bozorlardagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: elektron savdo, raqamli iqtisodiyot, O'zbekiston, raqamli transformatsiya, onlayn savdo, fintech, Big Data, sun'iy intellekt, logistika, innovatsiya

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные тенденции развития электронной торговли в Узбекистане в условиях цифровой трансформации экономики. Проанализированы основные факторы роста электронной коммерции, включая расширение интернет-инфраструктуры, развитие цифровых платёжных систем и рост спроса на онлайн-услуги. Особое внимание уделено роли инновационных технологий, таких как искусственный интеллект, Big Data и блокчейн, в повышении эффективности и конкурентоспособности электронной торговли.

Также выявлены существующие проблемы, включая ограничения в логистике, риски кибербезопасности и недостаточный уровень цифровой грамотности населения. На основе анализа международного опыта и национальных особенностей предложены практические рекомендации по совершенствованию экосистемы электронной торговли в Узбекистане. Полученные результаты способствуют разработке эффективных стратегий развития цифровой экономики и расширению участия малого и среднего бизнеса в онлайн-рынках.

Ключевые слова: электронная торговля, цифровая экономика, Узбекистан, цифровая трансформация, онлайн-торговля, финтех, Big Data, искусственный интеллект, логистика, инновации

Abstract: This article examines the modern trends in the development of e-commerce in Uzbekistan within the context of the digital transformation of the economy. The study analyzes the key drivers of e-commerce growth, including the expansion of internet infrastructure, the development of digital payment systems, and increasing consumer demand for online services. Particular attention is paid to the role of innovative technologies such as artificial intelligence, Big Data, and blockchain in enhancing the efficiency and competitiveness of electronic commerce.

The paper also identifies existing challenges, including logistics constraints, cybersecurity risks, and insufficient digital literacy among certain population groups. Based on the analysis of international experience and



national conditions, the study proposes practical recommendations for improving the e-commerce ecosystem in Uzbekistan. The findings contribute to the development of effective strategies for strengthening the digital economy and expanding the participation of small and medium-sized enterprises in online markets.

Keywords: e-commerce, digital economy, Uzbekistan, digital transformation, online trade, fintech, Big Data, artificial intelligence, logistics, innovation.

■ KIRISH

Kompyuter va raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi savdo sohasida tijoratning yangi shakli, ya'ni elektron tijoratning shakllanishiga zamin yaratdi. Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra «dunyo aholisining 33 foizi onlay savdoni amalga oshirmoqda», shuningdek «2024-yilda elektron tijorat hajmi 6 trl. dollarni tashkil etmoqda va 2027-yilga borib 8 trln.dollargacha o'sishi» dunyo miqyosida elektron savdo va elektron tijoratning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishini aks ettirmoqda. Shu bilan birga an'anaviy savdo bilan shug'ullanayotgan tijorat korxonalari o'zining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turli markepleys yoki mobil ilovardan foydalangan holda savdjo hajmini oshirishga katta e'tibor qaratib kelishmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat nafaqat savdo hajmini oshiradi, balki tranzaksiya xarajatlarni kamaytiradi, bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi va raqobat muhitini kuchaytiradi. Shu bois, elektron savdo global iqtisodiy tizimda strategik ahamiyatga ega yo'nalishga aylangan.

Globalizatsiya sharoitida elektron tijorat va elektron savdoni rivojlantirish maqsadida turli sun'iy intellektidan foydalangan holda mijozlarning talabini o'rganish, virtual (VR) va to'ldirilgan texnologiyalarni (AR) qo'llash, blokcheyn texnologiyalar orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O'zbekistonda mobil texnologiyalar va internet tarmog'ining kengayib borishi hamda hukumat tomonidan bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida elektron savdoni rivojlantirish uchun imkoniyatlarning kengayishiga olib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammitida so'zlagan nutqida «elektron savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni qabul qilishga chaqirdi».

Shu bilan birga Yangi O'zbekiston sharoitida elektron savdo orqali tovarlarni iste'molchigacha tez va sifatli etkazishda turli marketpleys va elektron platformalarni rivojlantirish masalalari atroflicha tadqiq etilmaganligi ushbu mavzu bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borilishi obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektron savdo (e-commerce) va raqamli iqtisodiyotni o'rganish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar tahlili mazkur sohaning nazariy asoslari, rivojlanish omillari va tendensiyalarini kompleks yoritish imkonini beradi.

Xalqaro tadqiqotlarda elektron savdo raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, Peitz va Waldfogel [6] raqamli iqtisodiyotda elektron savdoning bozor samaradorligini oshirish,

tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish va yangi biznes modellarni shakllantirishdagi rolini asoslab bergan.

Goldfarb, Greenstein va Tucker [2] tadqiqotida raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalari bozor chegaralarini kengaytirishi va global raqobatni kuchaytirishi ta'kidlangan.

UNCTAD [7] hisobotida esa elektron tijorat rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning muhim drayveri ekanligi qayd etilgan. Xususan, internet infratuzilmasi va logistika tizimlari rivoji elektron savdo hajmining o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

OECD [12] tadqiqotlarida elektron savdo rivojlanishi uchun institusional muhit, raqamli xavfsizlik va iste'molchilar ishonchi hal qiluvchi omillar sifatida ko'rsatilgan.

So'nggi yillarda Scopus bazasida chop etilgan ilmiy ishlar elektron savdoning innovatsion texnologiyalar bilan bog'liq jihatlarini keng yoritmoqda. Masalan, Kshetri [4] tadqiqotida blokcheyn texnologiyasi elektron savdoda ishonch va shaffoflikni ta'minlovchi muhim instrument sifatida baholangan.

Laudon va Traver [5] elektron tijoratni zamonaviy biznesning asosiy modeli sifatida tavsiflab, mobil savdo, platformali iqtisodiyot va raqamli marketing tendensiyalarini tahlil qilgan.

O'zbekistonda elektron savdo masalalari milliy olimlar tomonidan ham tadqiq etilmoqda. Gulyamov va boshqalar [3] raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron savdoning iqtisodiy ahamiyatini va uning rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilgan.

Begalov va Abdullayev [1] elektron savdo rivojlanishida raqamli infratuzilmaning roli va davlat siyosatining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

So'nggi milliy tadqiqotlarda elektron savdoning rivojlanish tendensiyalari sifatida internet foydalanuvchilar sonining o'sishi, mobil to'lov tizimlarining rivojlanishi va marketpleyslar faollashuvi qayd etilgan [8;9].

Shu bilan birga, World Bank [13] hisobotida O'zbekistonda elektron savdo rivojlanishi uchun logistika infratuzilmasini takomillashtirish va raqamli ko'nikmalarni oshirish zarurligi ta'kidlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron savdo rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: raqamli infratuzilma, institusional muhit, to'lov tizimlari, logistika, innovatsion texnologiyalar va iste'molchilar ishonchi. Biroq, O'zbekiston sharoitida ushbu omillarning o'zaro ta'siri va kompleks tahlili etarlicha o'rganilmagan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot elektron savdoni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tizimli tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI



Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning zamonaviy usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali elektron savdoning iqtisodiy tizimdagi o'ri va ahamiyati o'rganildi; taqqoslama tahlil usuli yordamida O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirildi; statistik tahlil usuli asosida elektron savdo rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari baholandi; induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi; ekspert baholash usuli yordamida sohaning rivojlanish istiqbollari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar (World Bank, OECD), milliy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etadi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR


Hozirgi global iqtisodiy transformatsiya sharoitida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib borib, yangi iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllantirmoqda. Ushbu jarayonda elektron savdo (e-commerce) raqamli iqtisodiyotning eng dinamik va yuqori o'sish salohiyatiga ega segmenti sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon amaliyotida elektron tijorat hajmining jadal o'sishi (2024 yilda 6 trln dollardan 2027 yilga kelib 8 trln dollargacha o'sishi) mazkur sohaning strategik ahamiyatini yanada oshiradi.



2024-yilda global elektron tijorat aylanmasi

Umumiy chakana savdoning 22% ulushi

Jahon bozorida raqamli iqtisodiyotning hukmronligi.



2024-yildagi onlayn bozor aylanmasi

2027-yilga kelib \$1 mlrd - \$2.2 mlrd maqsadli hajm

Katta o'sish potensialiga ega rivojlanayotgan milliy bozor.

1-rasm. Elektron tijoratning makro va mikro ko'lami [11]

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron savdoni kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda

internet foydalanuvchilarining yuqori ulushi (taxminan 89%) va raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi elektron savdo bozorining tez o'sishi uchun mustahkam institusional va texnologik asos yaratmoqda (2-rasm.)

32.7 million

Internet foydalanuvchilari
(Aholining 89% qamrovi)



1.2%

YAIMdagi ulushi
(2023-yil holatiga)



41-47%

Prognoz qilingan yillik o'sish
(KPMG CAGR tahlili)



224.3 trln so'm

Uzcard va HUMO orqali P2P
to'lovlar hajmi (2023-y)




2-rasm. O'zbekistonda raqamli bozorning KPI ko'rsatkichlari



Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda elektron savdo aylanmasi 15.2 trln so'mni tashkil etgani holda, o'rta muddatli istiqbolida (2027 yilgacha) uning hajmini 1–2.2 mlrd AQSH dollarigacha oshirish rejalashtirilgan. Bu holat milliy bozorda elektron savdo segmenti hali shakllanish bosqichida bo'lishiga qaramasdan, uning yuqori o'sish potentsiali (high growth potential) mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, internet infratuzilmasining kengayishi, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi va yosh avlodning raqamli faolligi mazkur o'sishning asosiy drayverlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qiyosiy tahlil natijalari elektron savdoning chakana savdo tarkibidagi ulushi mamlakatlar kesimida sezilarli farq qilishini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekistonda mazkur ko'rsatkich «2.2%»ni tashkil etgan bo'lsa, Qozog'istonda — 4.0%, AQShda — 19.4%, jahon o'rtacha darajasi — 33.3%, Xitoyda esa «38.3%»ga teng. (3-rasm).

Ushbu raqamlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston elektron savdo rivojlanish darajasi bo'yicha nafaqat rivojlangan mamlakatlardan, balki mintaqaviy raqobatchilardan ham orqada qolmoqda. Bu esa milliy elektron savdo bozorida “development gap” (rivojlanish bo'shlig'i) mavjudligini ko'rsatadi.



3-rasm. Chakana savdo tarkibida elektron tijoratning ulushi

Shu bilan birga, dinamik tahlil muhim ijobiy tendensiyaning namoyon etadi: 2018 yildagi 0.6% dan 2023 yilda 2.2% gacha o'sish elektron savdo bozorida barqaror o'sish trayektoriyasi shakllanayotganini tasdiqlaydi. Bu holat iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan “catch-up growth model” bilan izohlanadi, ya'ni past bazadan yuqori sur'atlarda o'sish imkoniyati mavjud.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda elektron savdo bozori hozirgi kunda «erta rivojlanish bosqichi (early-stage market development)»da bo'lib, uning keyingi rivojlanishi institusional islohotlar, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli ekotizimni chuqurlashtirish darajasiga bevosita bog'liq.

O'zbekistonda elektron savdoning barqaror va jadal rivojlanishini ta'minlash, avvalo, logistika infratuzilmasini tubdan modernizatsiya qilishni talab etadi. Amalda mavjud logistika zanjirlari, ayniqsa “last-mile delivery” bosqichidagi uzilishlar va samaradorlikning pastligi elektron savdoning kengayishini cheklovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan milliy fuqarolarning markazlarini tashkil etish, logistika klasterlarini shakllantirish hamda etkazib berish jarayonlarini raqamlashtirish orqali tranzaksion xarajatlarni

qisqartirish va xizmat ko'rsatish tezligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Elektron savdo rivojlanishida talab tomonidagi cheklovlarni bartaraf etish maqsadida raqamli ishonch va kiberxavfsizlikni ta'minlash strategik ahamiyat kasb etadi. Aholi orasida onlayn xaridlarga nisbatan ishonch darajasining pastligi bozorning kengayishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois elektron tranzaksiyalar xavfsizligini kafolatlovchi milliy standartlarni joriy etish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish va kafolatli to'lov (escrow) tizimlarini amaliyotga keng joriy etish zarur. Bunday choralar bozordagi “ishonch defitsiti”ni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, elektron savdoning rivojlanishi ko'p jihatdan kichik va o'rta biznes subyektlarining raqamli muhitga integratsiyasiga bog'liq. Amalda ko'plab tadbirkorlar raqamli platformalardan samarali foydalanish ko'nikmasiga ega emas yoki moliyaviy va texnik cheklovlarga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan marketpleyslarga kirishni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlar uchun raqamli savdo bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish va raqamli marketing



instrumentlarini joriy qilish orqali bozorda taklif tomonini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Elektron savdo ekotizimining samarali ishlashida fintex infratuzilmasining rivoji hal qiluvchi o‘rin tutadi. O‘zbekistonda raqamli to‘lov tizimlari muayyan darajada shakllangan bo‘lsa-da, ularning funksional integratsiyasi va xalqaro to‘lov tizimlari bilan uyg‘unlashuvi etarli emas. Shu bois fintex kompaniyalar uchun qulay institusional muhit yaratish, regulatory sandbox mexanizmlarini kengaytirish va transchegaraviy to‘lovlarni soddalashtirish orqali moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish zarur.

Elektron savdoning uzoq muddatli rivojlanishi inson kapitali va raqamli ko‘nikmalar darajasi bilan bevosita bog‘liq. Aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlikning pastligi elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Shu munosabat bilan ta‘lim tizimida raqamli iqtisodiyot, elektron savdo va fintexga oid fanlarni keng joriy etish, aholi va tadbirkorlar uchun amaliy trening dasturlarini tashkil qilish zarur. Bu esa talab va taklif tomonlarining bir vaqtda rivojlanishini ta‘minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar platformali iqtisodiyotning ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan milliy marketpleyslarni rivojlantirish, xalqaro platformalar bilan integratsiyani kuchaytirish va B2B hamda B2C segmentlarida raqamli platformalarni kengaytirish orqali O‘zbekistonni global elektron savdo zanjiriga integratsiya qilish imkoniyati mavjud.


Nihoyat, elektron savdoning barqaror rivojlanishi davlat siyosati va institusional muhit samaradorligiga bog‘liq. Shu bois yagona milliy elektron savdo strategiyasini ishlab chiqish, davlat va xususiy sektor

o‘rtasidagi hamkorlikni (PPP) kengaytirish hamda normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga moslashtirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni kompleks tarzda amalga oshirish O‘zbekistonda elektron savdo bozorini yangi bosqichga olib chiqib, uni “boshlang‘ich rivojlanish bosqichi”dan “jadal o‘shish bosqichi”ga o‘tishini ta‘minlaydi, shuningdek, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va global raqamli iqtisodiyotga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektron savdo rivojlanishi global raqamli transformatsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda va uning kelgusi dinamikasi innovatsion texnologiyalar hamda institusional islohotlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlil etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, zamonaviy texnologik trendlar — sun‘iy intellekt (AI), Big Data, blokcheyn hamda virtual va to‘ldirilgan reallik (VR/AR) — elektron savdoning yangi bosqichga o‘tishini ta‘minlovchi asosiy drayverlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, AI va Big Data texnologiyalari orqali iste‘molchilar xulq-atvorini chuqur tahlil qilish va talabni prognozlash imkoniyati paydo bo‘lib, bu esa shaxsiylashtirilgan marketing strategiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Blokcheyn texnologiyalari esa tranzaksiyalar shaffofligi va xavfsizligini ta‘minlash orqali bozorda ishonch muhitini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, VR va AR texnologiyalari an‘anaviy savdo modellarini raqamlashtirib, iste‘molchilar uchun yangi interaktiv xarid tajribasini shakllantirmoqda. (4-pasm)



4-rasm. Elektron savdoni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar integratsiyasi.

Shu bilan birga elektron savdoni rivojlantirishda raqamli ekotizim yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, davlat siyosati, fintex infratuzilmasi, logistika tizimi va innovatsion texnologiyalarning o‘zaro integratsiyalashuvi yagona funksional tizim sifatida amal qilishi zarur. Ushbu elementlarning alohida-alohida emas, balki sinergetik tarzda rivojlanishi elektron savdo bozorining barqaror o‘shishini ta‘minlaydi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda elektron savdo bozori hozirgi kunda transformatsiya bosqichida bo‘lib, uning kelgusi rivojlanishi ko‘p jihatdan raqamli infratuzilmaning chuqurlashuvi, fintex xizmatlarining kengayishi va logistika zanjirlarining modernizatsiya qilinishiga bog‘liq. Shu bilan birga, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida



amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur sohaning institutsional asosini mustahkamlab bormoqda.

Muhim jihat shundaki, elektron savdoning samarali rivojlanishi markazida iste'molchi va kichik biznes subektlari turishi lozim. Chunki aynan ushbu subektlar raqamli iqtisodiyotda talab va taklif muvozanatini shakllantiruvchi asosiy ishtirokchilar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ularning raqamli ekotizimga integratsiyasini ta'minlash strategik vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, barcha elementlarning — davlat siyosati, fintex infratuzilmasi, logistika tizimi va innovatsion texnologiyalarning — yagona ekotizim sifatida samarali ishlashi 2027-yilga kelib O'zbekistonda elektron savdo bozori hajmini sezilarli darajada oshirish, jumladan uni milliard dollarlik segmentga olib chiqish imkonini beradi.

Shu tariqa, elektron savdo nafaqat savdo sohasining transformatsiyasi, balki milliy iqtisodiyotning raqamli modernizatsiyasi va global raqobatbardoshligini oshirishning strategik omili sifatida namoyon bo'ladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xamrayeva Sayyora Nasimovna – QarDTU, Innovatsion iqtisodiyot kafedrası, i.f.d., professor / Хамраева Сайёра Насимовна – «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета, доктор экономических наук, профессор / Khamrayeva Sayyora Nasimovna – Department of Innovative Economy, Karshi State Technical University, Doctor of Economic Sciences, Professor

E-mail: xamrayevasayyora@gmail.com

ORCID: [0000-0001-6516-5226](https://orcid.org/0000-0001-6516-5226)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begalov B.A., Abdullayev M.Q. Raqamli iqtisodiyot. Darslik. – Toshkent. “Iqtisodiyot”, 2023. – 364 bet.
2. Goldfarb A., Greenstein S., Tucker C. Economic Analysis of the Digital Economy. Chicago: University of Chicago Press, 2015.
3. Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Raqamli iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –T.: «Voriz – nashriyot», 2020. 466 b.
4. Kshetri, N., 2018. Blockchain's roles in meeting key supply chain management objectives. International Journal of Information Management.
5. Laudon, K., Traver, C., 2022. E-commerce 2022: Business, Technology, Society. Pearson.
6. Peitz M., Waldfogel J. (eds.). The Oxford Handbook of the Digital Economy. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 602 p. — ISBN 978-0195397840.
7. UNCTAD, 2021. Digital Economy Report — <https://unctad.org/publications/digital-economy-report>
8. Xamrayeva S. O'zbekistonda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar / The innovation economy. – 2023. – T. 1. – №. 01. – С. 35-40.
9. Хамраева С. Н. Особенности развития электронной коммерции и электронной торговли в Узбекистане //Теория и практика управления предпринимательскими структурами в современных условиях. – 2023. – С. 107-113.
10. <https://president.uz/uz/lists/view/6847>. O'zbekiston Prezidenti raisligida IHTning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi.
11. <https://www.sellerscommerce.com>. 51 eCommerce Statistics In 2025 (Global and U.S. Data).
12. OECD, 2020. E-commerce in the Digital Economy — <https://www.oecd.org>
- World Bank, 2022. Uzbekistan Digital Economy Diagnostic — <https://worldbank.org>



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz